

Yo'lovchilarning fikri Uzbekistan Airways aviakompaniyasi faoliyatiga qanday ta'sir qiladi

2021 30 Oktabr

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi matbuot xizmati yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash maqsadida aviatashuvchini tanlashda ularning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash uchun doimiy so'rovlar olib borayotganini ma'lum qiladi.

Navbatdagi so'rov yo'lovchilarning havo kemasida taqdim etilayotgan xizmatlar sifati darajasini aniqlash va maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida o'tkazildi. So'rovnomalar Istanbul, Nyu-York, Moskva, Seul, Sankt-Peterburg, Minsk, Riga, Frankfurt-na-Mayne, Dubay, Sharja parvozlarida o'tkazildi. So'rovnomada 2 577 nafar respondent ishtirok etdi, ulardan 2 185 tasi ekonom, 392 tasi esa biznes-klass yo'lovchilari bo'ldi.

Respondentlarga bortkuzatuvchilar tomonidan xizmat ko'rsatish va ularning muomila madaniyati, yo'lovchilarning chaqiruvlari va so'rovlariga javob berish tezligi, taqdim etilgan ichimliklar, ovqat sifati va assortimenti, havo kemasida joylashgan videotizimlarga yuklangan dasturlarning xilma-xilligi, sanitariya holati, havo kemasining sahni va hojatxona tozaligi, shuningdek, parvoz haqida umumiy taassurotlariga muvofiq baholash taklif qilindi.

Izohlarda Uzbekistan Airways yo'lovchilari www.uzairways.com saytida aviachiptani sotib olishda qo'shimcha bagaj joyini sotib olish imkoniyatini yaratishni, havo kemasida video kontentni yangilash, Sky Shop xizmatini qaytarish, vegan menyusi sifatini yaxshilash, shuningdek, havo kemasida tarqatiladigan – Uzbekistan Airways bosma jurnalini qayta tiklashni so'rashgan.

So'rov natijalariga ko'ra, aviakompaniyaning ko'rsatilayotgan xizmatlari sifati bo'yicha yo'lovchilarni talabi qondirilishi o'rtacha ko'rsatkichi 89% ni tashkil etdi.

Uzbekistan Airways matbuot xizmati vakillari yo'lovchilarga avvalgidan ko'ra ko'proq so'rovlar yuborishni boshlashganini ham ta'kidladilar. Yo'lovchilarni bezovta qilmaslik maqsadida so'rovnoma bir oyda bir marotaba o'tkazilmoqda.

Aviakompaniya bortkuzatuvchilari parvoz davomida vaqti-vaqti bilan yo'lovchilarni so'rovnomalarni to'ldirish haqida e'lonlar qilib borishadi.

O'zbek aviatashuvchisi jamoasi, yo'lovchilar o'rtasida mazkur so'rovnoma orqali olingan ma'lumotlarga asoslanib, aviakompaniya rahbariyati Uzbekistan Airways tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash uchun aniq maqsadli yechimlarni amalga oshirishi shubhasiz.

Telegram: t.me/uzbekistanairways